



INSON HUQUQLARI VA QONUNCHILIK

Andijon davlat universiteti

MG'MAHT yo'nalishi 3-bosqich talabasi

Mirzarayimova Zebiniso Mansurbek qizi

Annotatsiya: Maqolada inson huquqlari, ularni himoya qilish, qonun bilan ularni ta'minlash va shu yo'ldagi islohotlar aks etgan.

Kalit so'zlar: Inson huquqlari, inson huquqlarini himoya qilish, konstitutsiya, qonunchilik.

Inson huquqlari – bu demokratik huquqiy davlatning eng muhim belgisidir.²³

Inson huquqlarini himoya qilish – Konstitutsiyaning asosiy prinsipi, O'zbekiston Respublikasi ijtimoiy-siyosiy tizimini tubdan isloh qilishning asosiy yo'nalishi va pirovard maqsadi. O'zbekiston Respublikasi birinchi Prezidenti I.A.Karimovning ma'ruza va nutqlarida inson huquqlari sohasida amalga oshirilishi lozim bo'lgan quyidagi besh strategik yo'nalish belgilab berilgan:

1. Inson huquqlari va erkinliklarini himoya qilishning samarali mexanizmini vujudga keltirish;
2. Inson huquqlari bo'yicha xalqaro huquqning umum e'tirof etgan prinsiplari va normalari asosida milliy qonunchilikni takomillashtirish;
3. Qabul qilingan qonunlarga og'ishmay amal qilish mexanizmini ishlab chiqish va ijtimoiy hayotning barcha jabhalarida qonun ustunligini ta'minlash;
4. Odil sudlov islohotini amalga oshirish yo'li bilan butun sud tizimini demokratlashtirish;
5. Aholi, ayniqsa, yoshlar va mansabdor shaxslar, huquq tartibot idoralari xodimlari o'rtasida huquqiy tarbiya ishlarini tubdan yaxshilash, ularning huquqiy ongini va madaniyatini yuksaltirish.

Inson huquqlari muammosi hozirgi zamonning eng dolzarb muammolaridandir. Inson huquqlari – jamiyatning eng oliy qadriyati. Inson huquqlari muhim konstitutsiyaviy institutdir. "Inson huquqlari" – butun insoniyatning intilishlari, orzu umidlarini o'zida jamlagan keng qamrovli tushuncha. Inson huquqlari hozirgi zamon taraqqiyotining asosi va davr talabi demokratik huquqiy davlatning eng muhim belgisi, har bir davlatning demokratik taraqqiyoti darajasini ko'rsatuvchi muhim mezondir. Shuning uchun ham inson huquqlari xalqaro huquqda va milliy huquqiy tizimda muhim o'rin tutadi.

Insoniyat o'z tarixiy rivojlanishi jarayonida inson huquqlariga oid qonunchilik tizimini yaratgan. Inson huquqlari to'g'risidagi qonunchilik – inson va fuqaro huquqlari va

²³ O.A.Tadjibayeva, N.K.Ramazonova. Inson huquqlari. "O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati" nashriyoti. T.:2010.7-b.



erkinliklari haqidagi qonunlar majmui. Bu qonunlar qatoriga inson huquqlari bo'yicha xalqaro hujjatlar va milliy qonunlar kiradi.

Inson huquqlari to'g'risidagi qonunchilik o'z taraqqiyotida uch katta bosqichni bosib o'tgan.

Birinchi bosqich 1789 yilgi Inson va fuqaro huquqlari fransuz deklaratsiyasidan boshlanib, to birinchi jahon urushiga qadar davom etgan. Bu bosqichda insonning shaxsiy va siyosiy huquqlari to'g'risidagi qonunchilik ustun ravishda rivojlangan. Bunga misol qilib, AQSH Konstitutsiyasiga kiritilgan birinchi o'nta qo'shimcha – Inson huquqlari to'g'risidagi Billni ko'rsatish mumkin.

Bu davrda qabul qilingan qonunlarda quyidagi muammolarni huquqiy tartibga solishga alohida e'tibor qaratilgan:

Shaxs erkinligi va fuqarolar tengligi;

Shaxs daxlsizligi;

Xususiy mulk huquqi;

Saylov huquqi (turli senzlar bilan cheklangan bo'lsa-da).

Inson huquqlari to'g'risidagi qonunchilik taraqqiyotining ikkinchi bosqichi XX asrning birinchi yarmini o'z ichiga olgan. Bu bosqichda sotsialistik g'oyalar va harakatlar ta'sirida insonlarning ijtimoiy-iqtisodiy huquqlariga oid qonunchilik tez rivojlangan. Mehnat qilish huquqi, dam olish huquqi, ijtimoiy yordam olish huquqi to'g'risidagi qonunlar alohida ahamiyat kasb etgan.

Fransiya va Shvetsiyadagi sotsial qonunchilik, 1920 yilgi Veymar Konstitutsiyasi, Fransiya va Italiyaning 1946 yilgi konstitutsiyalari bunga yaqqol misol bo'la oladi.

Uchinchi bosqich XX asrning ikkinchi yarmiga to'g'ri kelib, bu bosqichda Inson huquqlari to'g'risidagi qonun hujjatlarining “yangi avlodi” rivojlanadi. Bu huquqlar qatoriga:

Tinch yashash huquqi;

Sof va toza atrof muhitga ega bo'lish huquqi;

Axborot olish huquqi kabilar kiradi.

Bu bosqichda inson huquqlari to'g'risida xalqaro qonunchilik tizimi shakllanadi.

BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 80 ga yaqin, Yevropa Kengashi tomonidan – 160 dan ziyod, YUNESKO da – 70 dan ortiq, Yevropa xavfsizlik va hamkorlik tashkiloti tomonidan – 30 dan ko'proq; turli mintaqaviy xalqaro tashkilotlar tomonidan ham ko'plab



inson huquqlariga oid xalqaro shartnomalar, konvensiyalar, deklaratsiyalar, paktlar qabul qilindi.²⁴

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.O.A.Tadjibayeva,N.K.Ramazonova.Inson huquqlari. “O’zbekiston faylasuflari milliy jamiyati” nashriyoti.T.:2010.
2. U.Tadjixanov,X.Odilqoriev,A.Saidov.O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. “Sharq”nashriyoti.T.:2001.



²⁴ U.Tadjixanov,X.Odilqoriev,A.Saidov.O’zbekiston Respublikasining Konstitutsiyaviy huquqi. “Sharq”nashriyoti.T.:2001.334-335-336-b.